

YOSH AVLODNI INSONPARVARLIK VA VATANPARVARLIK RUHIDA TAYYORLASH

Husenova Sabina

Nizmoy nomidagi TDPU

Boshlang'ich ta'lif fakultetining 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh avlodni mukammal inson bo`lib tarbiyalash, Insonparvarlik - insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha ekanligi haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *yosh avlod, inson qadri, shart-sharoit, insonparvarlik, vatanparvarlik, erkinlik, millatlar, hususiyat.*

Millatlar bor ekan, ko`p millatli davlat doirasida ularning birgalikda yashashi va mehnat qilishiga doir yangi-yangi masalalar ham paydo bo`laveradi.

Davlatimiz rivojining hozirgi bosqichida madaniyatlarning o`zaro ta'siri va bir-birini o`zaro boyitishi chuqurlashtirish, millatlararo aloqani kuchaytirish, insonparvarligini mustahkam printsiplari ruhida tarbiyalash singari muammolar birinchi darajali ahamiyatga ega bo`laveradi. Masalani mohiyati shundaki, mustaqil xalqning hayoti, madaniyati va san'atida milliy va insonparvarlik jihatlar, intilishlar, hususiyatlar, unsurlar, belgilar o`zaro ajralmas. Mustaqil respublikamiz milliy hususiyatlari belgilari va an'analari bilan uzbek ravishda uyg`unlashib bormoqda.. Avvalo yosh avlodni mukammal inson bo`lib tarbiyalashda ularga har – xil musiqalardan ijro etib berish yoki eshittirish juda katta natija beradi. O`quvchilar shu musiqa orqali ta'sirlana olish kerak bo`ladi . Qachonki musiqa o`zini ta'sirini ko`rsata olgandagina yaxshi natija beradi. Yosh avlodga yo`nalishni to`g`ri bergandagina ular musiqani qanday musiqa ekanligini tushinib yetadi. Albatta o`quvchilar chet el musiqalarini ham tinglash kerak . Yuqorida aytib o'tilganidek musiqani ta'sirini uning tub ma'nosini tushinib yetgandagina farqiga yeta oladi. Har bir sinfga uning rejada belgilangan tartibda bo`lgandagina yaxshi natija bera oladi. O`quvchilarni ko`proq qo`sinq bilan band qilmay ularni nazariy bilimlarini qunt bilan o`rgatmoq va e'tibor berish kerak, musiqa kompozitorlari tarixi bilan ko`proq shug`ullantirish musiqa orqali jismoniy mashqlar uyushtirish kerak bo`ladi. Qachonki insonda milliy g`urur paydo bo`lgandagina u hamma narsani shu jumladan milliylikni

his qiladi. Demak u milliylikni his qildimi endi unda har-xil jaz – musiqasi va ajnabiy musiqalarini tinglashga ehtiyoj sezmaydi. O`qituvchi shunday bir g`oyani ilgari surish kerakki har bir qiz bolalar vaqt kelib ona bo`ladi. Ona mas'uliyati bola tarbiyasida muhim rol o`ynaydi. O`sha bola eshitadigan birinchi allasi onaning qalbining eng tubidan chiqish kerak bo`ladi, uni tinglagan har qanday bolada uning qonida milliy ohang va ruh paydo bo`ladi. Agar bolalarni tayyorlantirish uchun uning qulog`i ostida mantiqqa to`g`ri kelmaydigan musiqalar yangrasa, albatta u shu ruh bilan oziqlanadi va u o`zining milliy g`oyasini o`sib ulg`ayganda albatta yo`qotadi. «Qush uyasida ko`rganini qiladi» degan xalq maqoli bor. Bu maqol beziz aytilmagan, yosh avlodga bog`chada qanday bilim berilgan bo`lsa u shu birinchi qo`yilgan qadam bilan oldinga intiladi. Ilk bor bolalarga eshitayotgan musiqalarni milliy musiqalarimizni ko`proq eshittirishimiz ularni ongiga singdirishni bilishlik kerak bo`ladi. Maktabga kirib kelgan bolalar ilmga intiq, o`zga bir dunyo bilan kirib keladi. O`qituvchini har bir gapi o`quvchi uchun bir mo`jizadek tuyuladi. Shunday ekan bolalar dunyoqarashini to`g`ri yo`naltirish, o`quvchi qalbiga yo`l topa bilish kerak. Dastlabki bilim saviyasini to`g`ri tashkil qilish va dars reja asosida tashkil qila bilish kerak. Musiqa ilmini tarix manbani to`g`ri tushuntira bilish.

-O`quvchini musiqaga bo`lgan qizqishini o`rganish

-O`quvchini musiqa qobiliyatini aniqlay bilish.

-O`quvchilarga mos qo`shqlarni, ular ongiga singdirish.

O`quvchilarni musiqaga qiziqtirish va ularni bilim saviyasini aniqlash, albatta har bir o`quvchi musiqa tarixi bilan nazariyani bilishi kerak. Qachonki o`quvchi musiqa tarixini ayniqsa mumtoz kuylar, milliy musiqalar tarixini mukammal bilsa, shu taqdirdagina musiqaga, milliy musiqaga qizqish, milliylik g`ururini uyg`otadi.

Insonparvarlik - insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to`g`risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko`ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt - saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik Insonparvarlikning asosiy masalasidir.

Musulmon dunyosi ham «adolatli urush» tushunchasi bilan yaxshi tanish. Navro'z boshlangan paytda majburiy yarashuv o`rnatalishi, yilning muqaddas oylarida janglarning taqiqlanishi, payg'ambarning to`lov evaziga asirlarni ozod qilish mumkinligi haqidagi diniy ta'limotlari va musulmon huquqining asirlar

musulmonlikni qabul qilishlarini rag'batlantirish haqidagi qoidalari o'ziga xos insonparvarlik ko'rsatmalaridir.

Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma'no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o'zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko'zga tashlanadi. qur'onni Karim insonparvarlik qoyalari asosiga qurilgan. Muhammad alayhissalom hadislari shu qoyalarga boy hikmatlar majmuasi sanaladi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-shafqatida, diyonatda, o'zaro ko'maklashuvda, hamdardlikda, boshqalar qayqusiga sherik bo'lib, quvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko'rindi.

O'zbek xalqining turmush tarzi, mehnat faoliyati, o'zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanishi, yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga hurmati, sadoqati kabi qadriyatlari insonparvarlik g'oyalariga yaqqol misol bo'la oladi. O'zbek xalqi bir umr mehr-shafqatli bo'lgan, barchaga yordam qo'lini cho'zgan. O'zbek xalqi o'zining insonparvarligini fashizmga qarshi kurash yillari yetim bolalarning boshini silab o'z tarbiyasiga olib yorqin namoyon etdi. O'zbek xalqi doimo umuminsoniyat dardini kuylab kelgan. Al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino, az-Zamahshariy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Ogahiy asarlaridagi qoyalar - insonparvarlik ruhi bilan ajralib turadi. Xususan, Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Uningcha, vatanga, xalqqa sadoqat eng avval uning taqdiri ustida qamxo'rlikdan iboratdir. Insonga nisbatan beparvolik, uning taqdiri va baxtu saodati ustidagi qam emaslik sharaflı inson uchun tamomila yotdir. Navoiyning barcha-barchani insonga g`amxo'r bo'lishga chaqirgan, insonparvarlikni kuylagan quyidagi bayti asrlar hammamiz uchun ibrat yanglig` yangrab turibdi. Hozirgi kelajagi porloq yoshlarimizni insonparvarlik ruhida tarbiyalab kamol toptirish bilan bir qatorda ularda vatanparvarlik tushunchasini ham uqtirib borishimiz joizdir. Vatanparvarlik ma'lum va mashhur tamoyil bo'lib, u insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoiylarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog'liq. Bu tamoyil hayoliy tuyg'uga emas, balki muayyan zamonga, muayyan vatandosh insonlarga bo'lgan muhabbatga asoslangan axloqiy xatti-harakatlar majmuidir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg'usini yaratmaydi,

balki, uni tayyor holda qabul qiladi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg‘udir.

Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma’naviy axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak darajada namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarni, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlaridan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto zarur bo‘lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslik kabi ezgu g‘oyalalar yotadi.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash, ularni Vatan ma’nosini teran anglab yetishga o‘rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish ma’naviy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

Vatan mustaqilligini ta’minalashda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, alohida o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi davr talabidir.

Milliy vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash milliy o‘zlikni anglashning asosiy omili bo‘lib hisoblanadi. Shu bois, Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart.

Zero, vatanparvarlik ijtimoiy hayotimizning asosiy zarurati hisoblanadi, chunki usiz bunyodkorlik ham, taraqqiyot ham bo‘lmaydi.

Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog‘i hamda o‘zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog‘i lozim. Bu tizim markazida ma’naviyat, axloq-odob, ma’rifat kabi o‘lmas qadriyatlar turmog‘i kerak.

Yoshlarga har sohada o‘zlarini namoyon qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Har bir yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, ona-Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy an’analarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongi va shuurini zararli yot g‘oyalardan himoyalashga alohida vazifa sifatida qaralmoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni oiladan boshlamoq kerak. Chunki oila jamiyatning bir bo‘g‘inidir. Shunday ekan, jamiyatga kerakli kadrlarni oila yetkazib beradi. Oilada bola ulg‘ayadi, o‘sadi. Ana shu voyaga yetish jarayonida oila maktabining o‘rni beqiyos. Oilaga, ota-onaga, yaqinlarga bo‘lgan muhabbat, hurmat keyinchalik bir butunlik sifatida Vatan so‘zida mujassamlashadi. Shunday ekan, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yoshlarni ma’naviy yuksalishiga zamin yasaydi. Oilada bolalarimizga ertaklar aytayotganimizda ham milliy ertaklardan, afsonalardan, rivoyatlardan

foydalanishimiz u yerdagi qahramonlarning mardlik, jasurlik, o‘z vatanini hech narsaga alishtirmaslik, uni bir parcha tuprog‘ini ham muqaddas bilish lozimligini ajdodlarimiz ma’naviy meroslaridan foydalangan holda uzviy olib borishimiz vatanimiz kelajagini mevasini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Insonparvarlik ta'limi. 8, 18 - 20.
2. Insonparvarlik ta'limidagi muhim bosqichlar. *Ta'lim jurnali*, 107, 181.
3. Insonparvarlik ta'limi va o'qituvchi. *Ta'lim jurnali*, 100(2), 462.
4. Insonparvarlik ta'limi orqali bolalarda empatiya va prosotsial xatti-harakatlarni targ'ib qilish 175 – 182.